DASTURIY BUDJETLASHTIRISHNING JORIY ETILISHI NATIJASIDA BUDJET MABLAG'LARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi
SamISI "Bank ishi" kafedrasi o'qituvchisi.
Toshmurodov Tolmas Ashraf o'g'li
"Bank-Moliya xizmatlari" fakulteti talabasi.

Annotatsıya: Ushbu maqolada budjet mablag'larining shaklllantirilishi va foydalanilishi, dasturiy budjetlashtirishning mohiyati va uning iqtisodiyotimiz rivoji uchun ahamiyati, budjet mablag'lari ijrosi samaradorligini oshirishda amalga oshirilayotgan ishlar tahlili, hamda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishda budjet mablag'larini taqsimlovchilarning budjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2024-yil 4-yanvardagi 4-sonli qarori haqida keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: budjet jarayoni, dasturiy budjetlashtirish, byudjet xarajatlari, samaradorlikka asoslangan budjet, budjet nazorati, budjet shaffofligi.

Abstract: In this article, the formation and use of budget funds, the nature of program budgeting and its importance for the development of our economy, the analysis of the work being carried out to increase the efficiency of the execution of budget funds, and the President of the Republic of Uzbekistan "Budget funds in the implementation of the program budgeting system in the Republic of Uzbekistan Decision No. 4 of January 4, 2024 "On approving the regulation on the procedure for developing, monitoring and evaluating the effectiveness of budget programs of the distributors" is cited.

Keywords: budget process, program budgeting, budget costs, performance-based budgeting, budget control, budget transparency.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha sohalarida ulkan isloxotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, budjet mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanilishini ta’minlash, iqtisodiy va moliyaviy statistika ma’lumotlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda budjet jarayoni ochiqligini va shaffofligini oshirishning yangi mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Ushbu sohada dasturiy budjetlashtirishning joriy etilishi esa ana shunday islohotlarning natijasi desak mubolag’a bo’lmaydi.

Bunda **dasturiy budjetlashtirish** deganda - budjet tizimi budjetlari xarajatlarini budjet dasturlariga asosan rejalashtirish, ijrosini ta’minlash, nazorat qilish va hisobot tizimi tushuniladi. Dasturiy budjetlashtirishni joriy etishning asosiy maqsadi - davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish, shuningdek, budjet jarayonida shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini ta’minlash hisoblanadi. Dastur - maqsadli qabul qilingan qarorlarning uzoq muddatli oqibatlarini hisobga oladi, maqsadlarga erishishning turli usullarini solishtirish va shu asosda rivojlanishning bir necha turlarini amalga oshirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda eng maqbul yechimlarni tanlash imkonini beradi. Bu esa qabul qilingan qarorlarning asosliligini oshiradi, hamda ularning bajarilishini yaxshiroq nazorat qilish imkonini beradi.

Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning yanada jadal sur’atlarda davom ettirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishda budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning budjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2024-yil 4-yanvardagi 4-sonli qarori qabul qilindi. Bu qarorga muvofiq, vazirlik va idoralarning budjet dasturlarini ishlab chiqish, ijrosi va monitoringini yuritish,

budjet dasturlarining ijrosi bo'yicha jamlanma hisobotni tuzish va taqdim etish,

budjet dasturlarining ijrosini baholash, budjet dasturlarining ochiqligini ta'minlash tartibi belgilangan.

Yuqorida aytilgan fikrlardan ko’rinib turibdiki, axborotdan foydalanuvchilarga shaffof va ishonchli tarzda ma’lumotlarni yetkazib berish iqtisodiyotimiz rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri bo’lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar ijtimoiy yo‘nalish bilan bir qatorda, kelajak iqtisodiyoti uchun moliyalashtirishning asosiy manbai bo‘lib, iqtisodiyotning uni yangi bosqichga ko’tarishda istiqbolli sohalarni rivojlantirishni moliyalashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Iqtisodchi A. Avetisyan fikriga ko’ra: “Budjet xarajatlari samaradorligi iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy baholashlarni aks ettiruvchi keng tushunchadir. Shuning uchun xarajat va foyda kabi tushunchalar miqdoriy ko'rsatkichlar samaradorligi bilan o'lchab bo'lmaydi.”

Prof. N.H. Haydarov budjet mablag'laridan aslo kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlarni, avvalo, ijtimoiy sohani, yangi budjet tarkibiy yo'nalishlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash uchungina foydalanish lozimligini ta'kidlab o'tadi.

Iqtisodchilar Strauch, R.Xallenberg, M.J.Fon va Xagenlar Yevropa mamlakatlarida budjet prognozini shakllantirishda qabul qilingan dasturlarni barqaror realizatsiyasi va dasturlar o‘rtasidagi konvergentlik, ya’ni o‘zaro uyg’unlikni ta’minlashning omili ekanligini tadqiq qilishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada budjet mablag’laridan samarali foydalanish, budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish, dasturiy budjetlashtirish tizimining ahamiyati va zarurligi bo’yicha xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ishlari o’rganildi va tahlil qilindi. Tahlil jarayonida kuzatish, tahlil qilish usullaridan hamda statistik ma’lumotlardan foydalanildi. Shuningdek, ushbu sohada amalga

oshirilayotgan islohotlar va bunda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar haqida xulosalar keltirib o'tilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Dasturiy budjetlashtirishning joriy etilishi bilan budjet jarayonining barcha ishtirokchilarining vazifalari va funksiyalari o'zgaradi. Budjet qarorlarini qabul qilish uchun asos - iqtisodiy tasnifning alohida moddalari yoki muayyan davlat funksiyalarini bajarish xarajatlari bo'yicha xarajatlar miqdori emas, balki natijalarga erishish uchun maqsadli dasturlardir. O'zbekistonda 2020-2024-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirishning yo'nalishlaridan biri soliq - budjet siyosatida samaradorlik va samaradorlikka o'tgan holda strategik yondashuvni ishlab chiqish hisoblanadi. Budjetlashtirishning dasturiy usulini joriy etish orqali budjet mablag'lari samaradorligini oshirish mumkun. Dasturiy budjetlashtirishda budjet ijrosi belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish nuqtai nazaridan baholanadi. Buning uchun maqsad va vazifalarga erishish darajasini tavsiflovchi, budjet xarajatlari samaradorligini monitoring qilish va baholash imkonini beruvchi ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilmoqda.

Hozirgi kunda asosiy iqtisodiy hamkorlarimiz bo'lgan davlatlarda iqtisodiy o'sishning pasayishi holatlari kuzatilayotganiga qaramay, o'z vaqtida amalga oshirilgan keng ko'lamli va izchil islohotlar O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolish imkoniyatini berdi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning to'qqiz oyida mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi 5,8 foizga, xizmatlar sohasi 6,5 foizga, sanoat 5,7 foizga, qurilish ishlari 5,6 foizga va qishloq xo'jaligi 4,1 foizga o'sdi. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar 14,3 foizga oshib, 14,4 mln. so'mni tashkil etdi. Hisobot davrida davlat budjeti daromadlarining hajmi 162,9 trln. so'mni tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 16,6 trln. so'mga oshirib bajarilishiga erishildi.

Mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini va budjet mablag’laridan foydalanishning natijalarini hisobga olgan holda, strategik maqsadlar asosida ishlab chiqilgan dasturlarni amalga oshirish muhim. Ularning natijalari bilan O’zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlari xarajatlarini taqsimlash jarayonining o’zaro bog’liqligini ta’minlaydigan budjet ijrosini rejalashtirish, bajarish va nazorat qilish tizimi yaratiladi.

Xulosa

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkunki, budjet xarajatlarining samaradorligini va natijadorligini oshirishda dasturiy budjetlashtirish tizimining joriy etilishi natijasida vazirliklar va idoralarga ajratilgan budjet mablag‘larining samaradorligi va natijadorligini baholash mexanizmi yaratiladi. Davlat budjeti, budjetdan tashqari mablag’lar hamda grant mablag’laridan foydalanishning shaffofligi va ochiqligi ta’minlanadi.

Shuni ta’kidlash joizki, davlat boshqaruvining barcha darajalarida kadrlar tayyorlanmasdan va salohiyatini oshirmasdan turib, dasturiy budjetlashtirishni qo’llash jarayonida qiyinchiliklar va muammolar yuzaga keladi. Ushbu jarayonni to’g’ri tushunish va qo’llash uchun kadrlar tayyorlashga bo’lgan ehtiyojni baholash, tegishli o’quv dasturlarini ishlab chiqish va bu sohada treninglar o’tkazadigan trenerlarni tayyorlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishda budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning budjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2024-yil 4-yanvardagi 4-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2020-2024-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 24.08.2020 yildagi 506-son qarori.

3. Haydarov N.H. Byudjet daromadlarini barqarorlashtirish va samarasiz xarajatlarni qisqartirish yo'llari. // O'zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg'or xorij tajribasidan foydalanish» mavzucidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. –T.: TMI. «IQTISOD-MOLIYA», 2015. 43 b.

4. Tereza Ter-Minasyan, Pedro P. Parente, Pedro Martines-Mendes. Создание казначейства в странах с переходной экономикой. МВФ. 1995г.

5. Avetisyan I.A. Об эффективности государственного бюджета и бюджетных расходов //Проблемы развития территории. – 2005. – Т. 2. – №. 29.

6. Bekmurodov, A. A. "Improving the introduction of digital technologies in commercial Banks."Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 9.10 (2021): 355-357.

7. Bekmurodov, A. A. "Tijorat Banklari Faoliyatini Raqamlashtirish va Informatsion Texnologiyalarni Rivojlantirish Istiqbollari."Экономика и социум 6-1 (109) (2023): 87-89.

8. https://uza.uz/oz/posts/byudjet-xarajatlarining-samaradorligini-oshirish-nimalarga-bogliq_545891